KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ZAMONAVIY YONDASHUV

Abdufatayev Sherjaxon Abduazimovich-Guliston davlar pedagogika instituti o‘qituvchisi
Ahmatov Nodirbek Musa o‘g‘li, Pardayeva Dilafro‘z Shoyim qizi -
Guliston davlar pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Jamiyatimiz rivojlanishining chuqur iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ro‘y berayotgan hozirgi bosqichida o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish sifatini oshirish yo‘llari va vositalarini izlab topish zamonaviy pedagogikaning asosiy dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Kalit so‘zlar: Tayanch kompetensiya, umumiy (predmetli) kompetentsiya, xususiy kompetentsiya, rivojlantirish, bilim, ko‘nikma, malaka, kommunikativ, umummadaniy, o‘z-o‘zini baholash.

O‘quvchilar kelgusida hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning echimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch va fanga oid kompetentsiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Kompetentsiya tarkib toptirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko‘ra darajalarga ajratiladi.

O‘quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetentsiyalar tayanch kompetentsiya, faqat o‘quv fani orqali tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar xususiy kompetentsiyalar deyiladi.

Adabiyotlar tahlili o‘quvchilarda tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar uch darajaga ajratilishini ko‘rsatdi:

1. Tayanch kompetentsiyalar –o‘quv rejasidan o‘rin olgan barcha o‘quv fanlari mazmuni va o‘qitish jarayoni orqali tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar sanaladi.

2. Umumiy (predmetli) kompetentsiyalar - o‘quv rejadan o‘rin olgan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va amaliy o‘quv fanlarni o‘qitishda o‘zaro fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish orqali tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar nazarda tutiladi.

3. Xususiy kompetentsiyalar – ta’lim-tarbiya jarayonida DTS bilan me’yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan kompetentsiyalar hisoblanadi.

O‘qituvchilar kommunikativ kompetentsiyani tarkib toptirishni nazarda tutgan holda barcha darslarda o‘quvchilarning kelgusida jamiyatda muloqotga kirishishi uchun zarur bo‘ladigan og‘zaki va yozma nutqni mukammal o‘zlashtirishi, o‘z fikrini aniq va tushunarli bayon etish, darslik va qo‘shimcha adabiyotlardagi matn asosida mantiqiy ketma-ketlikda savollar tuzish, savollarga yozma va og‘zaki javob yozish, darslarda tashkil etiladigan o‘quv bahslar va turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo‘lgan

qarorlarni qabul qila olish, o‘z ona tili bilan bir qatorda horijiy tillarni o‘zlashtirishiga zamin yaratishi lozim.

DTS bilan me’yorlangan quyidagi o‘quv mehnati ko‘nikmalari o‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiya tarkib toptirishga asos bo‘ladi:

O‘quv adabiyotlari bilan ishlash ko‘nikmalari:

- O‘quv adabiyotlarining kirish qismida berilgan ko‘rsatmalarni bilish va qo‘llash;
- Rang bilan ajratilgan iboralarni ajrata olish;
- O‘quv adabiyotning mundarijasi asosida mo‘ljal olish;
- Simvollar va tayanch signallarni bilish va foydalanish;
- Kolontitullardan foydalanishni bilish;
- Ko‘rsatmalardan foydalana olish.

Matn ustida ishlash ko‘nikmalari:

- O‘qilgan matnga reja tuza olish;
- Matndan foydalanib savollarga javob topish;
- Matndan foydalanib ma’ruza yozish;
- Drslik matnidan foydalanib amaliy xarakterdagi topshiriqlarni bajara olish;
- Darslik matnidan foydalanib jadval, diagramma, sxemalar tuza olish;
- Darslik matnidan foydalanib tushuncha, qoidalarni topa olish;
- Ob’ektning tavsifini tuzish, xulosa yasash.

O‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantirishda turli kechalar va tanlovlar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentsiyasini tarkib toptirish maqsadida mavzuga oid o‘quv va videofilmlardan foydalanishi, qo‘shimcha adabiyotlar va internet saytlaridagi ma’lumotlarni saralashi, shu asosda o‘quvchilarga referat, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlardan samarali va o‘z o‘rnida foydalanishi zarur.

O‘qituvchi to‘garakning ish rejasini tuzishda o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentsiyasini tarkib toptirish nazarda tutishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarning shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetentsiyasini tarkib toptirish maqsadida o‘quvchilarning mustaqil ishlari va ta’limiga e’tibor qaratishi, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholashi uchun mavzular bo‘yicha standart va nostandart o‘quv va test topshiriqlari bazasini yaratishi, uni kompyuter xotirasiga joylashtirib adaptiv test topshiriqlariga aylantirishi, shuningdek, o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan ma’naviyat daqiqalarida jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga erishishga yo‘naltirish talab etiladi.

Fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini tarkib toptirishda turli darslar, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va guruhdan tashqari mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi. Mazkur jarayonda o‘quvchilarni tabiat va jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlar, mavzuga doir O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari bilan tanishtirish, aqliy, ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasiga e’tibor qaratish, muayyan kasbni mukammal egallash orqali Vatan ravnaqiga hissa qo‘shish, jamiyat va

oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, insonlarga mehr-muruvvat ko‘rsatish, saxovatli bo‘lishga undash zarur.

O‘quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini tarkib toptirishda o‘qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va guruhdan tashqari mashg‘ulotlarda olib boriladigan ishlar muhim o‘rin tutadi.

Tabiat muhofazasiga oid kechalar, ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari, taniqli yozuvchilar va olimlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish o‘quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini tarkib toptirishga zamin tayyorlaydi.

O‘quvchilarda umummadaniy kompetentsiyalarni tarkib toptirish uchun o‘qituvchi fanlarni o‘qitishda o‘quvchi-yoshlar ongi va qalbiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish orqali o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish, xalqning tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish, orasta kiyinish, yurish – turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish, aqliy, ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasi barobarida estetik tarbiyaga e’tibor qaratishi lozim.

O‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mavzuli kechalar, tadbirlar, uchrashuvlar, shanbaliklar o‘quvchilarda umummadaniy kompetentsiyalarni tarkib toptirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘quvchilarda matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetentsiyasini tarkib toptirishda o‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida hisoblashga doir turli masalalar, nostandart o‘quv topshiriqlari bilan ishlashni yo‘lga qo‘yishi lozim.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘quv maqsadlarini shakllantirishi va shu asosida dars ishlanmalarini loyihalashi zarur.

O‘quv maqsadlari	Ta’rifi	Texnologik kompetentsiyalar	Darsdagi nazorat turi	Nazorat ishidagi test topshirig‘i turi
Bilish	Axborotni o‘zlashtirish	Texnologik ob’ekt-larni tanish va izohlash; hodisa, jarayonlarni tushu-nish, tanish, izoh -lash. Havfsizlik texnikasi va eko- logik bilimlarni egallash	Test topshirig‘i. Og‘zaki javob. Klaster tuzish.	Reproduktiv. Produktiv. Qisman-izlanishli. Kreativ
Tushunish	Ahamiyatni anglash, asosiy g‘oyani ajratib ko‘rsatish	Texnologik ob’ekt, hodisa va jarayonlarni tushunish va izoh lash.	Klaster tuzish. Venn diagrammasi tuzish. Masalalar echish	Reproduktiv. Produktiv. Qisman-izlanishli. Kreativ
Amaliyotga qo‘llash	Axborotni yangi kutilmagan vaziyatda qo‘llash	Texnologik ob’ekt, hodisa, jarayonlar ustida kuzatish va tajriba o‘tkazish.	Klaster tuzish. Venn diagrammasi tuzish	Qisman-izlanishli. Kreativ
Tahlil	Axborotni yoki ob’ektni qismlarga ajratish	Buyuumlarni tfrkibiy qisimlarini tahlil qilish	Klaster tuzish. Venn diagrammasi tuzish	Qisman-izlanishli. Kreativ
Sintez	G‘oyalarni mujassam- lashtirish	Yasalayotgan buyuumning qisimlarini yig‘ish	Klaster tuzish. Venn diagrammasi tuzish	Qisman-izlanishli. Kreativ
Xulosalash	O‘rganilgan mavzu yuzasidan xulosa yasash	Texnologik ob’ekt, hodisa, jarayonlar haqida umumiy xulosa yasash	Og‘zaki javob	Reproduktiv. Produktiv. Qisman-izlanishli. Kreativ

Ushbu jadvalda o‘quv maqsadlari, ularning izohi, darslarda o‘quvchilarda kompetentsiyalarni tarkib toptirish bosqichlarida foydalaniladigan o‘quv topshiriqlari, oraliq nazoratda kompetentsiyalarni nazorat qilish uchun foydalaniladigan nostandart test topshiriqlarining turlari va ularning murakkablik darajalari o‘z aksini topgan.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda kompetentsiyalarni tarkib toptirish muammosi o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik kompetentsiyalariga aniqlik kiritish, pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida kompetentsiyaviy yondashuv talablari asosida kurslarning mazmunini yangilash, shu asosda o‘qitishni tashkil etish va boshqarish davr talabi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djuraev R.H. va boshq. Pedagogika. .- Toshkent. 2013. - B. 64.

2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. - М.: Издательство ИРПО МО РФ, 1995. - С. 336.

3. Abdufatayev, S. (2024). Fanlararo integratsiya–ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy omili. *News of UzMU journal*, *1*(1.1. 1), 31-35.